Uchinchi oqim — kredit riski va operatsion samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlikka oid empirik tadqiqotlardir. A. Berger va R. DeYoung muammoli kreditlar va xarajatlar samaradorligi o'rtasida ikki tomonlama bog'liqlik mavjudligini, ya'ni monitoring sifatini oshirish uzoq muddatda NPL dinamikasini maqbullashtirish orqali samaradorlikni ta'minlashga xizmat qilishini asoslagan [18]. Bu xulosa kredit riskini boshqarishga yo'naltirilgan resurslarni daromadlilikka investitsiya sifatida baholash mumkinligini ko'rsatadi. E. Altmanning diskriminant tahlilga asoslangan klassik modeli [19] esa hozirgi kredit-skoring va erta ogohlantirish tizimlarining nazariy poydevori bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar bo'yicha Moliyaviy barqarorlik kengashi (FSB) sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganishning moliyaviy xizmatlardagi imkoniyatlari bilan birga model riski, tushunarlilik va ma'lumotlar sifatini takomillashtirish bilan bog'liq jihatlarni ham ko'rsatgan [20].

Mahalliy manbalar orasida "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun [21], Markaziy bank to'g'risidagi Qonun [22], bank tizimini isloh qilish strategiyasi [3] hamda Markaziy bankning moliyaviy barqarorlik hisobotlari [23] tartibga solish talablarini belgilaydi. O'zbekiston bank amaliyotida RAROC, iqtisodiy kapital va ERM yondashuvlarini daromadlilik bilan bog'liq holda o'rganish yo'nalishini yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot aynan shu yo'nalishni rivojlantirishga qaratilgan: xalqaro nazariy asosni mahalliy bank sharoitiga moslashtirib, risk-menejmentni natijadorlik boshqaruvining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-amaliy (analitik) xususiyatga ega bo'lib, unda quyidagi metodlardan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodi yordamida xalqaro tartibga soluvchilar hujjatlari, fundamental darsliklar va retsenziyalanadigan jurnallardagi maqolalar tizimlashtirildi. Qiyosiy tahlil orqali risk-menejmentga oid turli ilmiy oqimlar va Bazel qo'mitasi talablari O'zbekiston bank amaliyoti bilan solishtirildi. Tizimli tahlil kredit, operatsion, likvidlik va bozor risklari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hamda ularning daromadlilikka ta'sir kanallarini aniqlashda qo'llanildi. Induksiya va deduksiya usullari muayyan amaliy holatlar (masalan, riskka asoslangan narxlash, NPL monitoringi) asosida umumiy xulosalar chiqarish va, aksincha, umumiy tamoyillarni bank amaliyotiga tatbiq etishda qo'llanildi. Xalqaro tajribani o'rganish metodi RAROC, ERM va operatsion bardoshlilik tizimlarining rivojlangan banklardagi qo'llanilishini tahlil qilish imkonini berdi.

Muallifning "Turonbank" ATB Risk departamentidagi amaliy tajribasi tahlil natijalarini bank faoliyatining real jarayonlari bilan bog'lashga xizmat qildi; bankning ichki ma'lumotlari esa maxfiylik talablariga muvofiq maqolada keltirilmagan. Shu sababli tadqiqot sifat tahlili va ilmiy asoslangan mantiqiy dalillarga tayangan holda amalga oshirildi. Aniq bank statistikasi va ekonometrik modellarni keyingi tadqiqotlarda qo'llash mazkur yo'nalishdagi tahlillarni yanada kengaytirish imkonini beradi. Ushbu jihat diskussiya bo'limida alohida muhokama qilinadi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Risk va daromadlilik o'rtasidagi bog'liqlik. Klassik moliya nazariyasida yuqori daromad yuqori risk evaziga olinadi. Biroq bank uchun bu bog'liqlik chiziqli emas. Muayyan chegaradan so'ng qo'shimcha risk qo'shimcha daromad keltirmasligi mumkin: kutilayotgan yo'qotishlar, zaxira xarajatlari, kapital yuki va tartibga soluvchi talablarning kuchayishi ehtimoli ortib boradi. Bazel III aynan shu mantiqdan kelib chiqib, riskli aktivlarga nisbatan yuqoriroq kapital talablarini belgilagan [5]. Shuning uchun bankning vazifasi maksimal riskni qabul qilish emas, balki **optimal risk - optimal daromad - barqaror natijadorlik** tamoyili asosida faoliyat yuritishdir. Bu yerda "optimal" deganda bankning risk appetite¹ doirasida kapital birligiga eng yuqori riskka moslashtirilgan daromad beradigan pozitsiya tushuniladi.

Risk-menejmentning daromadlilikka ta'siri to'rtta kanal orqali amalga oshadi: (1) yo'qotishlarni kamaytirish - kredit va operatsion yo'qotishlar bevosita foydaga ta'sir qiladi; (2) kapitaldan samarali foydalanish - sifatli risk o'lchovi kapitalni kam riskli, ammo daromadli yo'nalishlarga yo'naltirish imkonini beradi; (3) narxlashni takomillashtirish - riskni to'liq aks ettirgan foiz stavkasi marjani himoya qiladi; (4) mablag' jalb qilish xarajatlarini pasaytirish - barqaror bank depozitorlar va investorlar uchun ishonchli bo'lib, nisbatan arzon resurslarni jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ellul va Yerramillining natijalari [17] aynan ushbu kanallarning inqiroz davrida qanday ishlashini tasdiqlaydi.

Kredit riskini boshqarish orqali daromadlilikni oshirish. Kredit riski O'zbekiston banklari uchun asosiy risk turlaridan biri bo'lib qolmoqda, chunki kredit portfeli aktivlarning katta qismini tashkil etadi. Zamonaviy kredit risk-menejmenti bir nechta o'zaro bog'liq instrumentlarga tayanadi. **Kredit skoringi** qaror qabul qilishni standartlashtiradi va subyektiv xatolarni kamaytiradi. **Defolt ehtimoli (PD), defolt holatidagi yo'qotish (LGD) va defolt vaqtidagi qarz (EAD)** ko'rsatkichlari asosida kutilayotgan yo'qotish hisoblanadi [9; 12]:

$$EL = PD \times LGD \times EAD$$

Kutilayotgan yo'qotish, mohiyatan, kredit mahsuloti tannarxining bir qismi hisoblanadi. Agar bank uni foiz stavkasida hisobga olmasa, bu foyda marjasining qisqarishiga olib kelishi mumkin; hisobga olganda esa **riskka asoslangan narxlash** (risk-based pricing) yuzaga keladi: ishonchli qarz oluvchi nisbatan arzonroq, yuqori riskli qarz oluvchi esa risk darajasiga mosroq stavkada kredit oladi. Bu bankka adolatli marjani saqlash bilan birga portfel sifatini boshqarish imkonini beradi. **Portfelni diversifikatsiya qilish** tarmoq, hudud va yirik qarz oluvchilar bo'yicha konsentratsiyani cheklab, kutilmagan yo'qotishlarni kamaytiradi. **Ilk ogohlantirish tizimi (EWS) va NPL monitoringi** esa muammoni defoltdan oldin aniqlab, restrukturizatsiya yoki garov ta'minotini mustahkamlash orqali ehtimoliy yo'qotishlarni cheklash imkonini beradi. Berger va DeYoung ko'rsatganidek [18], monitoringga sarflangan xarajatlar keyinchalik NPL va zaxira xarajatlarining pasayishi hisobiga qoplanishi mumkin.

RAROC va riskka moslashtirilgan daromadlilik. An'anaviy ko'rsatkichlar (ROA, ROE) bank qancha foyda olganini ko'rsatadi, biroq bu foyda qancha risk evaziga olinganini to'liq aks ettirmaydi. Ikki filial bir xil foyda ko'rsatishi mumkin, ammo biri bunga yuqori riskli kreditlar hisobiga erishgan bo'lsa, ikkinchisi sifatli portfel hisobiga natija qayd etgan bo'lishi mumkin. **RAROC** (Risk-Adjusted Return on Capital) aynan shu farqni ko'rsatadi [14; 15]:

$$RAROC = (\text{Daromad} - \text{Xarajatlar} - \text{Kutilayotgan yo'qotish}) / \text{Iqtisodiy kapital}$$

Bu yerda iqtisodiy kapital² kutilmagan yo'qotishlarni qoplash uchun zarur bo'lgan kapital miqdorini bildiradi. RAROC uch darajada qo'llaniladi: alohida bitim darajasida (kreditni berish yoki bermaslik, qanday stavkada berish), biznes yo'nalish darajasida (qaysi segment kapitaldan samaraliroq foydalanishi) va butun bank darajasida (kapital taqsimoti va strategiya). Agar bitimning RAROC ko'rsatkichi bank kapitalining tannarxidan (hurdle rate) past bo'lsa, bunday bitim buxgalteriya foydasi bersa ham, aksiyadorlar qiymatini yetarli darajada oshirmasligi mumkin. Shu ma'noda, RAROC risk bo'linmasi va biznes bo'linmalari o'rtasidagi manfaatlar uyg'unligini ta'minlaydi: har ikkala yo'nalish ham bir xil ko'rsatkich asosida baholanadi.

ERM tizimining ahamiyati. Risklarni alohida-alohida boshqarish ("silos" yondashuvi) ularning o'zaro bog'liqligini har doim ham to'liq aks ettirmaydi. Masalan, foiz stavkasining oshishi kredit riskiga qarz yukining ortishi orqali, likvidlik riskiga esa depozitlar oqimining o'zgarishi orqali bir vaqtda ta'sir qilishi mumkin. Enterprise Risk Management (ERM) barcha risklarni yagona tizimda ko'rib chiqish, ular o'rtasidagi korrelyatsiyani aniqlash va strategiya bilan bog'lashni nazarda tutadi. COSO ERM konsepsiyasi riskni strategiya va natijadorlikdan ajralmas omil sifatida ta'riflaydi [24]. ERM bankka quyidagi imkoniyatlarni beradi: strategik qarorlarni risk-tahlil asosida qabul qilish; kapitalni yagona iqtisodiy kapital modeli asosida taqsimlash; risk appetite ko'rsatkichlarini

1 Risk appetite — bank strategik maqsadlariga erishish yo'lida ongli ravishda qabul qilishga tayyor bo'lgan riskning umumiy darajasi va turi; odatda Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan Risk Appetite Statement hujjatida belgilanadi.

2 Iqtisodiy kapital — bank muayyan ishonchlilik darajasida (masalan, 99,9%) kutilmagan yo'qotishlarni qoplash uchun zarur deb hisoblaydigan kapital miqdori; tartibga soluvchi kapitaldan farqli ravishda bankning ichki risk modellari asosida hisoblanadi.



har bir yo'nalish bo'yicha limitlarga aylantirish; stress-testlar orqali makroiqtisodiy ssenariylarning butun bank faoliyatiga ta'sirini baholash. Hoyt va Liebenberg [16] hamda Ellul va Yerramilli [17] ishlari ERM va kuchli risk funksiyasining qiymat yaratishdagi rolini empirik jihatdan tasdiqlaydi.

Operatsion risklarni kamaytirish. Operatsion risk - ichki jarayonlar, xodimlar, tizimlar yoki tashqi hodisalar tufayli yuzaga keladigan yo'qotish riski [8]. Raqamlashgan bank faoliyatida ushbu riskning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Uni boshqarishning asosiy elementlari 1-jadvalda umumlashtirilgan. **Uch chiziq modeli** [25] mas'uliyatni aniq taqsimlaydi: biznes bo'linmalari riskni kundalik boshqaradi, risk va komplayens funksiyalari metodologiya va mustaqil nazoratni ta'minlaydi, ichki audit esa butun tizim samaradorligini baholaydi. **Kalit risk indikatorlari (KRI)** - masalan, tizim uzilishlari soni, xodimlar almashinuvi va muvaffaqiyatsiz tranzaksiyalar ulushi - ehtimoliy muammolarni yo'qotishga aylanmasdan oldin aniqlash imkonini beradi. **Operatsion bardoshlilik** [2] va **biznes uzluksizligini boshqarish** esa hodisa yuz berganda ham bankning muhim xizmatlari uzluksizligini ta'minlaydi. Har bir oldi olingan hodisa saqlab qolingan foyda va mijozlar ishonchining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

1-jadval

Operatsion riskni boshqarish elementlari va ularning natijadorlikka ta'siri

Element	Mazmuni	Natijadorlikka ta'siri
Ichki nazorat	Jarayonlarga o'rnatilgan tekshiruv va vakolatlar taqsimoti	Xato va firibgarlik bilan bog'liq yo'qotishlarni kamaytiradi
Uch chiziq modeli	Biznes - risk/komplayens - ichki audit mas'uliyati	Nazorat bo'shliqlari va takrorlanishini kamaytiradi
KRI	Riskning ilk belgilari bo'yicha o'lchanadigan ko'rsatkichlar	Yo'qotish yuzaga kelishidan oldin choralar ko'rish imkonini beradi
Hodisalarni boshqarish	Yo'qotish hodisalarini qayd etish, tahlil qilish va sabablarini bartaraf etish	Takroriy yo'qotishlarning oldini olishga xizmat qiladi va ma'lumotlar bazasini shakllantiradi
Operatsion bardoshlilik va BCM	Muhim xizmatlarning uzluksizligini ta'minlash	Reputatsiya va daromadga ta'sirni cheklaydi

Zamonaviy texnologiyalarning risk-menejmentdagi o'rni. Sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish risk-menejmentda universal yechim emas, balki muayyan vazifalarni aniqroq va tezroq bajarishga xizmat qiluvchi vositalardir. Ularning amaliy foydasi quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Kredit riskini aniqlashda mashinaviy o'rganish modellari an'anaviy skoringga nisbatan ko'proq o'zgaruvchilarni, jumladan, tranzaksiya tarixi va xatti-harakat ma'lumotlarini hisobga olib, PD baholarining aniqligini oshiradi. Firibgarlikni aniqlashda real vaqt rejimida tranzaksiyalarning g'ayrioddiy naqshlarini aniqlash yuqori tezlikda tahlil qilish imkonini beradi. Ilk ogohlantirish tizimlarida katta ma'lumotlar (big data) asosidagi bashoratli tahlil qarz oluvchining moliyaviy holatidagi o'zgarishlarni rasmiy muddati o'tgan qarzdorlik yuzaga kelishidan ancha oldin aniqlash imkonini beradi. Avtomatlashtirilgan monitoring esa qo'lda bajariladigan nazorat operatsiyalarini kamaytirib, operatsion xarajatlarni pasaytiradi va qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi.

Shu bilan birga, FSB [20] ta'kidlaganidek, ushbu texnologiyalarni qo'llashda modellarning tushunarililigi ("qora quti"), ma'lumotlar sifati, tarixiy nomutanosibliklarning takrorlanish ehtimoli va uchinchi tomon texnologiya yetkazib beruvchilariga bog'liqlik kabi jihatlarni hisobga olish zarur. Shu sababli sun'iy intellekt modellari ham model-risk boshqaruvi doirasida validatsiya qilinishi, ularning natijalari inson nazorati ostida bo'lishi lozim. Texnologiya risk-menejmentni almashtirmaydi, balki uning imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tahlil natijalari maqolaning markaziy pozitsiyasini tasdiqlaydi: risk-menejment daromadlilikka to'rtta kanal - yo'qotishlarni kamaytirish, kapitaldan samarali foydalanish, narxlashni takomillashtirish va resurs tannaxini pasaytirish - orqali ta'sir qiladi va shu ma'noda strategik instrument hisoblanadi. Bu xulosa Stulz [13] va Merton-Perold [14] nazariy qarashlari bilan uyg'un bo'lib, Ellul-Yerramilli [17] va Hoyt-Liebenberg [16] empirik natijalari bilan mos keladi. Ayni paytda maqola ushbu ishlardan farqli ravishda xalqaro nazariy asosni O'zbekiston bank tizimining amaliy sharoitiga - davlat ulushidagi banklarning transformatsiyasi, kredit portfelining ustunligi va raqamli xizmatlarning tez rivojlanishi - bilan bog'laydi.

Avvalgi tadqiqotlar bilan taqqoslaganda, ikki jihatni ta'kidlash o'rinli. Birinchidan, Bazel hujjatlari [4-8] asosan minimal talablar mantiqida shakllantirilgan; maqola esa ularni "nima qilish shart" nuqtayi nazaridan tashqari, "nima qilish foydali" yondashuvi asosida ham talqin qilishni taklif etadi: risk kapital talabini bajarish uchungina emas, balki kapitaldan samaraliroq foydalanish uchun ham o'lchanadi. Ikkinchidan, ko'pgina mahalliy ishlarda risk turlari alohida ko'rib chiqiladi; maqola ularni ERM va RAROC orqali yagona natijadorlik tizimiga birlashtirishni taklif etadi. Bu yerdan yangi tushuncha kelib chiqadi: risk bo'linmasini "xarajat markazi" sifatida



emas, balki “kapital samaradorligi markazi” sifatida baholash. Amaliyotda bu risk bo‘linmasining KPI tizimiga RAROC dinamikasi, EWS aniqligi va oldi olingan yo‘qotishlar kabi ko‘rsatkichlarni kiritishni anglatadi.

Tadqiqotning metodologik doirasi ham aniq belgilangan. Ishda bankning ichki statistik ma‘lumotlari va ekonometrik modellar qo‘llanilmaganligi sababli xulosalar sifat tahliliga tayanadi. O‘zbekiston banklari kesimida RAROC va iqtisodiy kapital bo‘yicha taqqoslanadigan ochiq ma‘lumotlarni kengaytirish kelgusida ta‘sirni miqdoriy baholash imkoniyatlarini oshiradi. Ilmiy adabiyotlardagi empirik natijalar asosan rivojlangan bozorlar banklariga tegishli bo‘lgani sababli, ularni rivojlanayotgan bozorlar sharoitiga moslashtirishda mahalliy xususiyatlarni hisobga olish muhimdir. Kelajakdagi tadqiqot yo‘nalishlari sifatida O‘zbekiston banklari panel ma‘lumotlari asosida risk-menejment sifati ko‘rsatkichlari (masalan, NPL darajasi, zaxira qoplanishi, KRI) va ROE/RAROC o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik baholash, shuningdek, mahalliy bank uchun iqtisodiy kapital modelini amaliy ishlab chiqish taklif etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot quyidagi ilmiy va amaliy xulosalarga olib keldi. Birinchidan, risklarni boshqarish bank foydasiga bevosita ta‘sir qiladi: kutilayotgan yo‘qotish mahsulot tannarxining bir qismi bo‘lib, uni to‘g‘ri o‘lchash va narxlash marjani himoya qiladi, kutilmagan yo‘qotishlarni kamaytirish esa kapital yukini optimallashtirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, risk va daromad o‘rtasidagi optimal muvozanat maksimal riskni qabul qilish emas, balki risk appetite doirasida kapital birligiga eng yuqori riskka moslashtirilgan daromad beradigan pozitsiyani tanlashdir. Uchinchidan, bank natijadorligini oshirishning asosiy mexanizmlari riskka asoslangan narxlash, portfel diversifikatsiyasi, ilk ogohlantirish va NPL monitoringi, KRI asosidagi operatsion nazorat hamda operatsion bardoshlilikdan iborat. To‘rtinchidan, RAROC risk va biznes bo‘linmalarini yagona mezon bilan bog‘laydi, ERM esa risklarni strategiya va kapital taqsimoti bilan uyg‘unlashtiradi; ikkalasi birgalikda risk-menejmentning nazorat funksiyasini qiymat yaratish funksiyasi bilan uyg‘unlashtiradi. Beshinchidan, raqamli texnologiyalar kredit riskini baholash, firibgarlikni aniqlash va monitoringni avtomatlashtirishda aniqlik hamda tezlikni oshiradi, bunda model-risk boshqaruvi va inson nazoratini ta‘minlash muhim ahamiyatga ega. Umumiy xulosa shundan iboratki, risk-menejmentga yo‘naltirilgan resurslar bankning uzoq muddatli daromadlilik va barqarorligiga investitsiya sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

Tahlil asosida “Turonbank” ATB va O‘zbekiston tijorat banklari uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Riskka moslashtirilgan natijadorlik tizimini joriy etish. Filiallar va biznes yo‘nalishlari natijadorligini faqat foyda hajmi bilan emas, balki RAROC va kutilayotgan yo‘qotishni hisobga olgan holda baholash; ushbu ko‘rsatkichni rahbarlarning KPI tizimiga kiritish.

2. Kredit va investitsiya qarorlarini RAROC asosida baholash. Yirik kreditlar uchun kredit qo‘mitasi qaroriga RAROC hisob-kitobini majburiy ilova sifatida kiritish; kapital tannarxidan past RAROC beradigan bitimlar uchun alohida asoslash talabini belgilash.

3. ERM tizimini kuchaytirish. Risk appetite hujjatini har bir risk turi va yo‘nalish bo‘yicha miqdoriy limitlarga aylantirish; risklar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiruvchi integratsiyalashgan risk hisobotini Kuzatuv kengashiga muntazam taqdim etish.

4. KRI va ilk ogohlantirish tizimini rivojlantirish. Kredit portfeli uchun qarz oluvchining tranzaksion faolligi, muddati o‘tgan to‘lovlar dinamikasi va tarmoq ko‘rsatkichlariga asoslangan EWSni, operatsion risk uchun esa tizim, xodim va jarayonlar bo‘yicha KRI panelini yaratish hamda ularga chegaraviy qiymatlar belgilash.

5. Sun‘iy intellekt asosidagi risk monitoringini bosqichma-bosqich joriy etish. Avvalo, firibgarlikni aniqlash va tranzaksiya monitoringi kabi amaliy natija beradigan vazifalardan boshlash; har bir modelni validatsiya qilish va uning natijalarini inson nazorati ostida saqlash.

6. Stress-test tizimini rivojlantirish. Makroiqtisodiy (valyuta kursi, foiz stavkasi, tarmoq inqirozi) va idiosinkratik ssenariylar bo‘yicha muntazam stress-testlar o‘tkazish, natijalarni kapital rejalashtirish va limitlar tizimiga bog‘lash.

7. Risk madaniyatini oshirish. Risk-menejment bo‘yicha o‘qitishni barcha darajadagi xodimlar uchun majburiy qilish; risk to‘g‘risida ochiq xabar berishni rag‘batlantirish; biznes bo‘linmalari mukofotlash tizimida risk ko‘rsatkichlarini hisobga olish.

8. Operatsion bardoshlilik tizimini takomillashtirish. Muhim biznes xizmatlar ro‘yxatini va ularning uzilishiga bardoshlilik chegaralarini aniqlash; uchinchi tomon (outsourcing, IT-yetkazib beruvchilar) risklarini baholash tartibini joriy etish; biznes uzluksizligi rejalarini muntazam sinovdan o‘tkazish.

Ushbu tavsiyalar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularni ketma-ket emas, balki yagona dastur doirasida amalga oshirish maqsadga muvofiq. RAROC samarali ishlashi uchun sifatli ma‘lumotlar zarur; ma‘lumotlar KRI va EWS orqali tizimli shakllantiriladi; ushbu vositalarning barchasi esa rivojlangan risk madaniyati bilan uyg‘unlashtirilganda yuqori natija beradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Basel Committee on Banking Supervision. Report on the 2023 Banking Turmoil. — Basel: Bank for International Settlements, 2023.
2. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for Operational Resilience. — Basel: BIS, 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-4811025>
4. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: A Global Regulatory Framework for More Resilient Banks and Banking Systems (rev. 2011). — Basel: BIS, 2011.
5. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: Finalising Post-Crisis Reforms. — Basel: BIS, 2017.
6. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for the Management of Credit Risk. — Basel: BIS, 2000.
7. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for Sound Liquidity Risk Management and Supervision. — Basel: BIS, 2008.
8. Basel Committee on Banking Supervision. Revisions to the Principles for the Sound Management of Operational Risk. — Basel: BIS, 2021.
9. Hull J. C. Risk Management and Financial Institutions. 5th ed. — Hoboken: Wiley, 2018.
10. Jorion P. Financial Risk Manager Handbook. 6th ed. — Hoboken: Wiley, 2011.
11. Saunders A., Cornett M. M. Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. 9th ed. — New York: McGraw-Hill Education, 2018.
12. Bessis J. Risk Management in Banking. 4th ed. — Chichester: Wiley, 2015.
13. Stulz R. M. Rethinking Risk Management // Journal of Applied Corporate Finance. — 1996. — Vol. 9, No. 3. — P. 8-24.
14. Merton R. C., Perold A. F. Theory of Risk Capital in Financial Firms // Journal of Applied Corporate Finance. — 1993. — Vol. 6, No. 3. — P. 16-32.
15. Zaik E., Walter J., Kelling G., James C. RAROC at Bank of America: From Theory to Practice // Journal of Applied Corporate Finance. — 1996. — Vol. 9, No. 2. — P. 83-93.
16. Hoyt R. E., Liebenberg A. P. The Value of Enterprise Risk Management // Journal of Risk and Insurance. — 2011. — Vol. 78, No. 4. — P. 795-822.
17. Ellul A., Yerramilli V. Stronger Risk Controls, Lower Risk: Evidence from U.S. Bank Holding Companies // Journal of Finance. — 2013. — Vol. 68, No. 5. — P. 1757-1803.
18. Berger A. N., DeYoung R. Problem Loans and Cost Efficiency in Commercial Banks // Journal of Banking & Finance. — 1997. — Vol. 21, No. 6. — P. 849-870.
19. Altman E. I. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy // Journal of Finance. — 1968. — Vol. 23, No. 4. — P. 589-609.
20. Financial Stability Board. Artificial Intelligence and Machine Learning in Financial Services: Market Developments and Financial Stability Implications. — Basel: FSB, 2017.
21. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-son Qonuni: <https://lex.uz/ru/docs/-4581969>
22. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi O'RQ-582-son Qonuni: <https://lex.uz/uz/docs/-4590452>
23. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Moliyaviy barqarorlik hisoboti. — Toshkent: O'zR Markaziy banki, yillik nashr.
24. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO). Enterprise Risk Management — Integrating with Strategy and Performance. — COSO, 2017.
25. The Institute of Internal Auditors. The IIA's Three Lines Model: An Update of the Three Lines of Defense. — Lake Mary: IIA, 2020.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>